

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING HUQUQIY MAQOMI, UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI TUTGAN O'RNI

Ibrohimov Adhamjon Ibrohim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

2-bosqich talabasi

Adhamibrohimovv@icloud.com

+99888-537-13-33

ANNOTATSIYA: Quyidagi maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat boshlig'i bo'lmish prezident va uning faoliyatiga doir muhim ma'lumotlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, davlat boshlig'inining barcha vakolatlari va uning o'z lavozimiga kirishish bosqichlari milliy qonunchiligidagi normalar orqali keng muhokama qilinadi. Maqolada mamlakatimiz Prezidentining huquq va majburiyatlari bilan ilg'or yevropa mamlakatlari prezidentlarining vakolatlari taqqoslanadi hamda ijobiy va salbiy jihatlar yoritib beriladi.

KALIT SO'ZLAR: Prezident, eks-prezident, Prezident administratsiyasi, Prezidentning daxlsizlik huquqi, siyosiy partiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается Президент, глава государства Республики Узбекистан, а также важные сведения о его деятельности. Также все полномочия главы государства и этапы его вступления в должность широко регламентированы нормами нашего национального законодательства. В статье сравниваются права и обязанности Президента нашей страны с полномочиями президентов развитых европейских стран, выделяются положительные и отрицательные стороны.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Президент, экс-президент, администрация президента, президентский иммунитет, президентский офис, политическая партия.

ANNOTATION: The following article discusses the President, the head of state of the Republic of Uzbekistan, and important information about his activities. Also, all the powers of the head of state and the stages of his assumption of office are widely discussed through the norms of our national legislation. The article compares the rights and obligations of the President of our country with the powers of the presidents of advanced European countries, and highlights their positive and negative aspects.

KEYWORDS: President, ex-president, Presidential administration, Presidential immunity, Presidential Office, political party.

KIRISH

Birinchi navbatda prezident kim ekanligini tushunib olish uchun ushbu so'zning lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: "Prezident" atamasi lotincha "praesidens" so'zidan olingan bo'lib "oldinda o'tiruvchi ma'nosini anglatadi. Tarixda birinchi marta prezident atamasi AQSHning 1787-yildagi konstitutsiyasida keltirib o'tilgan. Tarixda ilk bor amalda prezident sifatida saylangan shaxs **Jorj Washington** 1789-yilda Amerika Qo'shma shtatlarining birinchi prezidenti sifatida e'lon qilingan va aynan ushbu davrdan boshlab prezidentlik institutining rivojlanish davri boshlangan.

Hozirgi globallashuv davriga kelib jahon miqqiyosida prezidentlik instituti tashkil etish va rivojlantirish demokratik tendensiya sifatida ko'rildi. Jumladan, prezidentlik institutini tashkil etish bevosita xalq tomonidan saylov huquqini amalga oshirish orqali yoki xalq saylagan vakillar tomonidan saylash yo'li bilan tashkil etiladi. O'zbekiston markaziy osiyoda balki butun ittifoq davlatlarining ichida birinchilardan bo'lib prezidentlik lavozimini o'z ichki boshqaruviga kiritgan ittifoq tarkibidagi yagona davlatdir. O'zbekiston Respublikasida ushbu institutning shakllanishi mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov nomi bilan bog'liq. Islom

Karimov 1990-yilning 24-mart kuni o'zini O'ZSRning prezidenti deb e'lon qiladi va keyinchalik rasmiy ravishda saylanadi. O'zbekistonda prezidentlik lavozimi o'rnatilishi va uning faoliyati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilgan quyidagi ishlarni alohida ko'satish mumkin: Mamlakat mustaqillikka erishdi, konstitutsiya va u asosida milliy qonunchilik tizimi yaratildi, mamlakat iqtisodiyotiga bozor munosabatlari tamoyillari kirib keldi, iqtisodiy negiz yaratildi, milliy va tarixiy ana'nalarimiz va qadriyatlarimiz tiklandi, va eng asosiysi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, va sud hokimiyatlari tashkil etildi. Bu islohotlarning barchasiga bosqichma bosqich prezidentimiz tashabbusi orqali erishildi deb qo'rmasdan aytaolishimiz mumkin.[1]

MATERIAL VA METODLAR

Ushbu mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil va rasmiy huquqiy usullar asosida prezident va uning huquqiy maqomi, himoya choralar o'rganildi. Shuningdek ilg'or yevropa mamlakatlaridagi prezident lavozimiga doir muhim jihatlar qiyosiy tahlil metodiga tayangan holda tahlil qilindi.

TADQIQIOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Mavzuni chuqur tahlil qilishni boshlashdan avval mamlakatimizda bo'lib utgan prezidentlik saylovlari va ularning tahliliga to'xtalib o'tsak. O'zbekiston nomidagi respublika tashkil topganidan buyon bu respublikaga 12 kishi rahbarlik qilgan. Ularning 10 nafari sobiq ittifoq davrida yuqorida tayinlangan, 2 nafari — Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyev prezidentlik saylovlarida g'olib chiqib, mustaqil [3]

O'zbekistonni to'laqonli boshqargan. O'zbekistonda prezidentlik instituti 31 yillik tarixga ega va mana shu davr oralig'ida 6 marta davlat rahbari maqomi uchun saylovlari bo'lib o'tdi. Dunyo xaritasida yangi davlat — O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lgan, endi uni rasman kim boshqarishi bo'yicha xalq fikri aniqlanadigan palla edi. To'g'ri, bundan oldin, ya'ni 1990 yilda ham prezidentlikka saylov bo'lgandi. Ammo unda SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston Oliy soveti sessiyasida respublikaga prezident saylangan, ya'ni amalda fuqarolar bu jarayonda ishtirok etmagandi. Prezidentlik instituti ta'sis etilganidan so'ng davlatimizda keng qamrovli islohotlar boshlandi. 1991-yil 18-noyabrda mamlakatimizda prezidentlik saylovlari tartibga soluvchi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shu asosda 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov bo'lib o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi Islom Karimov va "Erk" Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi. Saylovlari yakuniga ko'ra, ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 12,3 foizi esa Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Ushbu saylovlari mamlakat taraqiyoti yo'lida tashlangan ilk qadamlar edi. Shundan so'ng mamlakatdagi ogir vaziyatni inobatga olib 1995-yilning 26-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida o'tkazilgan saylovda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Shundan so'ng prezident vakolatlarigabag'ishlab mamlakatda yan bir bor referendum o'tkazildi va 2002-yil 27-yanvarida bo'lib o'tgan referendumda vakolat muddati 5-yildan 7 yilga uzaytirildi. 2007-yil 23-dekabrda bo'lib o'tgan saylovda 88,1 foiz ovoz bilan Islom Karimov 7 yilga saylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 2015-yil dekabrda tugashi munosabati bilan Prezidentlik lavozimiga saylov o'tkazildi. 2015-yil 29-mart kunidagi prezident saylovida Islom Karimov 90,39 foiz ovoz bilan g'alaba qozondi. 2016-yil 2-sentabrda Islom Karimov og'ir xastalik tufayli vafot etdi. Shu munosabat bilan navbatdan tashqari umumxalq prezidentlik saylovlari o'tkazildi. 2016-yil 4-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi"gi qonunga muvofiq muqobillik va sog'lom raqobat asosida Prezidentlik saylovi o'tkazildi. Unda 88,61% ovoz bilan Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylandi. [2] Davlatimizda bo'lib utgan prezident saylovlaring amaldagi prezidentimiz lavozimiga kelguncha bo'lgan davrini o'rganib chiqdik. Keyingi o'rinda urganishimiz kerak bo'lgan masala bu prezidentning lavozimiga kelish bosqichlarini tahlil qilib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 106-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatning 18 yoshga to‘lgan fuqarolari umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berishi yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 7 yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida"gi qonun (1991-yil 18-noyabr) va uning yangi tahririda (2004-yil 3-dekabr) qabul qilingan tegishli moddalarida belgilangan. Nomzodlarni saylash tartibi bu alohida e’tibor talab qiladigan jarayon hisoblanadi va bu jarayonda bevosita xalqimizni manfaati maydonga chiqadi. Aynan shu omil sababli bu masalada ishlar tizimlilik, adolatlilik va xolislik tamoyillariga to‘la javob beradigan bir yo‘sinda tashkil etilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko‘rsatish huquqiga siyosiy partiylar va bevosita fuqarolar egadirlar. Saylash huquqiga ega bo‘lgan fuqaro yoki fuqarolar guruhi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko‘rsatish uchun kamida 300 nafar saylovchidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi kerak. Prezidentlikka nomzodlar ko‘rsatish saylovga 65 kun qolganda boshlanadi va 45 kun qolganda tugaydi. Nomzodlar ko‘rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari, shuningdek, saylovchilar tashabbuskor guruhi yig‘ilishi tomonidan amalgalashiriladi. Prezident saylovida 2 ta nomzod ishtirok etgan taqdirda, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbiy ko‘pchilik ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida 2 tadan ortiq nomzod ishtirok etgan taqdirda, agar nomzodlarning hech biri ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko‘pining ovozini ololmagan bo‘lsa, saylovchilarning ovozini eng ko‘p olgan 2 nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari to‘g‘risidagi axborot saylovdan keyin 10 kundan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e’lon qilinadi. Saylangan Prezident O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari rasmiy tarzda e’lon qilingan kundan e’tiboran kechi bilan 2 oy ichida Oliy Majlis yig‘ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishadi. Albatta prezidentning qasamyod qabul qilishi ya’ni “INNAGURATION” bu prezidentning xalqqa va uning manfaatlariga to‘la bo‘ysangan holda faoliyat yuritishini rasmiy tarzda tasdiqlash jarayoni deb aytish mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti quyidagicha qasamyod qiladi:

"O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdowan bajarishga tantanali qasamyod qilaman"

Milliy qomusimiz bo'lmish konstitutsiyamizning 109-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga keng va xilma-xil vakolatlar berilgan. Bu vakolatlar davlat hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va umuman jamiyat rivojlanishiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Biz bu vakolatlardan eng muhimlarini qisqacha misollar yordamida yoritib beramiz. Ma'lumki davlatning boshiga og'ir kunlar kelganda uning liderlari maydonga chiqib keladi va aksincha bunday bo'lmasligi ham mumkin. Bunga misol tariqasida O'zbekiston mustaqillikka erishgan paytlaridagi og'ir va etnik murosaga boy davrlarni eslatib o'tishimiz mumkin. Bulardan eng mashhurlari O'shdagi voqealar bilan bog'liq. Nega aynan O'sh? Chunki Qирг'изистонда давлат раҳбарларининг тез тез алмашishi natijasida mamlakatda muholifat va millatchilik holatlari avj oladi bu jarayonlarni qирг'из хукумати назоратдан чиқарib qo'yadi. Aynan qирг'из xalqining millatchilik tuyg'ulari 2010-yilga kelib minglab o'zbeklarning qирг'in qilinishiga olib keladi. Bunday vaziyatda O'zbekiston respublikasini birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zining konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquqlari naqadar real hayotga bog'iq ekanligini isbotladi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, va mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan faoliyat yuritish bu davlat boshlig'ining birlamchi vazifasi ekanligi konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Qирг'in natijasida talofat ko'rgan yuz minglab o'zbeklar prezient qaroriga asosan vatanga qaytarildi va ular moddiy jihatdan qo'llab quvvatlandi.

Keyingi o'rindagi to'xtalib o'tishimiz kerak bo'lgan mavzumiz bu prezident administratsiyasi hisoblanadi. Ma'lumki har bir mansabdor shaxs o'z faoliyatini to'laqonli shaxsan o'zi bajara olmaydi. Buni biz davlat rahbari misolida tahlil qiladigan bo'lsak, prezident amaliy tashrif bilan horijga yoki xalqaro konferensiya qetish holatlarinatijasida uning ish faoliyati to'xtab qolishining oldi olinishini ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi prezidenti o'z faoliyatini samarali olib borish uchun o'z huzurida prezident administratsiyaini tashkil etadi. Prezident administratsiyasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Administratsiya prezidentning faoliyatida yuzaga keluvchi muammolar bo'yicha va ularning yechimiga qaraltilgan faoliyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari, shu jumladan davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorligini taminlash bo'yicha vakolatlarini amalga oshirishiga ko'maklashadi, mamlakatning

ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi holati va tendensiylarini tahlil qilish, amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash bo'yicha kuzatuvlar olib boradi. Hozirda amalda bo'lib turgan Administratsiya tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-avgustidagi farmoniga asosan tayinlangan a'zolardan iborat.

Prezidentning daxlsizligi doir asosiy ma'lumotlar va normalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida keltirib o'tilgan bo'lib prezident barcha vakolatlarning huquqiy himoyada ekanligini isbotlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi uning turar joy va xizmat xonalariga, bagajiga, shaxsiy va xizmat transport vositalariga, yozishmalariga, foydalananadigan aloqa vositalariga, shuningdek unga tegishli hujjatlarga tatbiq etiladi. O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidenti ham butun hayoti mobaynida daxlsizlik va immunitetga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog'liq harakatlar uchun jinoiy va boshqa xil javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Unga nisbatan ushlab turish, so'roq qilish, tintuv o'tkazilishi yoki uning shaxsi ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Immunitet-(lot immunitas) biror narsadan xalos, ozod bo'lish, qutilish ma'nosini bildiradi. Huquqiy institut sifatida immunitetning paydo bo'lishi Rim qonuni bilan bog'liq bo'lib, u birinchi navbatda soliqlardan yoki davlat bojlaridan ozod qilish, shaxsga, toifaga yoki jamiyat bir qismiga Senat yoki imperator tomonidan berilgan maxsus huquq sifatida mustahkamlanib, jinoyatchining va jabrlanuvchining ijtimoiy holatiga qarab huquqiy javobgarlik tarzida birinchi marta immunitet tushunchasini berdi. Keyinchalikbu insitut rivojlanib hozirga kelib davlat raxbarlari, sudyalar, diplomatik vakillar va elchilarga yoki alohida jamiyat uchun kerakli shaxslarga nisabatan beriladigan huquq.

EKS-PREZIDENT

Eks-prezident- "Eksprezident" so'zi, o'zbek tilida, "sobiq prezident" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z "eks-" (sobiq) va "prezident" (davlat rahbari) qismlaridan tashkil topgan. "Eksprezident" deganda, ilgari prezident bo'lib ishlagan, lekin hozirgi vaqtda ushbu lavozimni egallamagan shaxs tushuniladi. Ya'ni, hozirda davlat rahbari bo'lмаган, lekin avval shu lavozimni bajarib, o'z vaqtida mamlakatni boshqargan kishi. Hozirgi kunga kelib bu lavozim bizning mamlakatimizda mavjud emas lekin eksprezident uchun va uning faoliyati xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lган huquqiy vositalar bizning qonunchiligidan o'z ifodasini topgan. Xususan O'z vakolatlarini konstitutsiyaga muvofiq tugatib yoxud sog'ligi holatiga ko'ra iste'foga chiqqan O'zbekiston Prezidenti yoki eks-Prezidentga huquqiy va ijtimoiy kafolatlari O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi 480-II-son Qonuni³⁰ bilan

belgilangan. Qonunning maqsadi amaldagi Prezident va eks-Prezidentga daxlsizlik, ularni qo‘riqlash, faoliyatining moddiy ta’minoti, uy-joy, tibbiy ta’minotini mustahkamlashdir. O‘zbekiston Respublikasi eks-Prezidenti butun hayoti davomida daxlsizlik va immunitetga ega hisoblanadi. Shuningdek, ushbu qonunda eks-Prezident O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog‘liq harakatlar uchun jinoiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilangan. Unga nisbatan ushlab turish, so‘roq qilish, tintuv o‘tkazish yoxud uning shaxsi ko‘zdan kechirilishi mumkin emasligi ham mazkur normativ-huquqiy hujjatda o‘z ifodasini topgan. Qonunda eks-Prezidentga doimiy yoki vaqtincha turgan joylarida davlat muhofazasi berilishi hamda butun hayoti davrida uning oila a’zolariga ham davlat muhofazasi berilishi mustahkamlangan. Ushbu muhofazani ta’minlash Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklangan. Amaldagi qonunga muvofiq, eks-Prezidentga yoshidan qat’i nazar, amaldagi O‘zbekiston Prezidenti oylik mansab maoshining 70 foizi miqdorida umrbod oylik pul ta’minoti olish huquqi belgilangan. Yana bir muhim kafolat — eksPrezidentning hayoti va sog‘lig‘i davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amaldagi O‘zbekiston Prezidenti yillik mansab maoshiga teng summada majburiy davlat sug‘urtasidan o‘tkaziladi. Qonun orqali eks-Prezidentga davlat hisobidan xizmat kvartirasi va shahar tashqarisidagi — Toshkent viloyatidagi qarorgohi mulk qilib berilib, tegishli xizmatlar ko‘rsatilishi va muhofaza qilinishi kafolati ham berilgan. Shu o‘rinda mazkur normativ-huquqiy hujjat orqali eksPrezidentga maxsus hukumat aloqalari hamda davlat organlari ixtiyoridagi boshqa aloqa turlaridan respublika hududida bepul foydalanishning huquqiy kafolati ta’minlagan. Darhaqiqat, eks-Prezidentga davlat hisobidan ikki nafar haydovchisi bo‘lgan avtomobil biriktirilib, xizmat transporti orqali xizmat ko‘rsatishning ta’minlangani ham unga nisbatan yetarli ijtimoiy kafolat ta’minlanayotganidan darak beradi. Qonunda eks-Prezident bilan birga yashayotgan yoki unga hamrohlik qilayotgan oila a’zolari ham xizmat transportidan foydalanish huquqiga egaligi ham belgilangan.[5]

SIYOSIY PARTIYA

Bu mavzuga nega aynan siyosiy partiyalarning aloqasi bor? Biz bu masalani dastlab prezidentlik insituti vujudga kelgan AQSH va Yevropa mamlakatlari misolida tahlil qilamiz. Dastavval siyosiy partiya tushunchasiga to’xtalib o’tsak, Siyosiy partiya - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir . Bundan ko‘rinib turibdiki, siyosiy partiya oddiy xalqning siyosiy jarayonlarga ishtirok etishini ta’minlaydigan eng muhim va eng oson yo’ldir.Siyosiy partiyalar faoliyati faqat oliy majlisda ahamiyatga ega degan nazariya aslida

noto'g'ri.chunki AQSHda prezidentlik instituti vujudga kelgan dabvrdan boshlab ikkita siyosiy partiya 1-demokratlar 2- respublikachilar o'rytasida hokimiyat uchun ayovsiz kurash ketmoqda hattoki ayrim davrlarda bu ikkita partiya mamlakat aholisini shimol va janub qismlarga ajratib qo'yishgacha olib kelgan. Agar siyosiy partiya hokimiyatga o'z nomzodini qo'yolsa unda mamlakatni partiya manfaatlari asosida rivoj;antirish vakolati vujudga keladi. Siyosiy partiya ahamiyati juda yuqori bo'lган Yevropa mamlakatlari misoliga Germaniyani ko'rsatib utish mumkin. Germaniyada partiya manfaati prezidentni lavozimiga qo'yishda katta ahamiyat kasb etmaydi va aksincha KANSLER amalda ijro apparati boshqaruvchisi hisoblanadi.[7]

BOSH QOMONDON

Barchamizga ma'lumki bosh qomondonlik mamlakatga nisbatan real tashqi xavf mavjud bo'lganda davlat boshqaruvi va butun mamalakat prezident qo'lidan chiqadi va oliv bosh qo'mondan butun mamlakatda yagona boshqaruvchi shaxsga aylanadi. Aynan ushbu xususiyatlarni inobatga olib ko'plab mamlakatlarda oliv bosh qo'mondon etib mamlakatda kimrahbar bo'lsa o'sha shaxs tayinlanadi va armiyahamunga bo'ysunadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 109-moddasi 20-bandiga ko'ra pezident,O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliv qo'mondonlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, oliv harbiy unvonlar beradi. Amaliy jihatdan olib qaraganda ham bu juda to'g'ri tanlangan yo'l. Bu masalani AQSH bosh qo'mondonligi bo'yicha o'rganadigan bo'lsak ayrm farqlarni ko'rishimiz mumkkin bo'ladi. AQSHda Prezident qurolli kuchlar bosh qo'mondoni rolida harbiy harakatlar uchun javobgardir. Biroq, Kongress urush e'lon qilish uchun konstitutsiyaviy javobgarlikka ega. Zamonaviy davrda prezidentlar urush e'lon qilmasdan ham Kongressning roziligi bilan qo'shinlarni mojarolarga jalb qilish vakolatlarini oshiradilar.[8]

Shu o'rinda AQSH prezidenti vakolatlari tasnifiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak-Prezident Amerika Qo'shma Shtatlarining ham davlat, ham hukumat boshlig'i, ham qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi. Konstitutsiyaning II moddasiga ko'ra, Prezident Kongress tomonidan yaratilgan qonunlarning bajarilishi va bajarilishi uchun javobgardir. O'n besh ijroiya bo'limi - har biri Prezident Mahkamasining tayinlangan a'zosi tomonidan boshqariladi - federal hukumatning kundalik boshqaruvini amalga oshiradi. Bunda ularga Markaziy razvedka boshqarmasi va atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi kabi boshqa ijro etuvchi idoralar ham qo'shiladi, ularning rahbarlari Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kirmaydi, lekin Prezidentning to'liq vakolati ostidadir. Prezident, shuningdek, Federal zaxira kengashi yoki Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi kabi 50 dan ortiq mustaqil federal komissiyalar rahbarlarini, shuningdek, federal sudyalarni, elchilarni va boshqa federal idoralarni tayinlaydi. Prezidentning Ijroiya apparati (EOP) Prezidentning

bevosita xodimlaridan, shuningdek, Boshqaruv va Byudjet idorasi va Amerika Qo'shma Shtatlari Savdo vakili idorasi kabi tashkilotlardan iborat. Bulardan ko'rinish turibdiki amerika davlat boshlig'ining vakolatlari alohida tartibga solingan, tartibli va bir yo'sinda joylashtirilgan.

TAHLIL

Barchamizga ma'lumki O'zbekiston mustaqillikka erishgach yangi insitut bo'l mish prezidentlik insitutining joriy etilishiga jamiyatimiz insonlari beparvolik bilan qaragan edi. Hozirgi kunga kelib mamlakatdagi jadal iqtisodiy o'sish suratlari tanlangan yo'l qanchalik to'g'rilingini isbotladi. Statistik ma'lumotlarga qraydigan bo'lsak hoziga kelib BMTga a'zo davlatlarning 193 tasidan 143 tasida prezidentlik boshqaruvi u yoki bu shaklda amalyotga kiritilgan.

XULOSA

Xulosa qilib olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy aqomi mamlakatning siyosiy va huquqiy tizimidagi muhim o'rinni egallaydi. Prezidentning vakolatlari, mas'uliyatlari va huquqlari davlat boshqaruvining samarali amalga oshirilishini ta'minlashda asosiy rol o'yndaydi. U mamlakatning ichki va tashqi siyosatini belgilash, qonunlar va qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish, shuningdek, xalqaro aloqalarda O'zbekistonni taqdim etishda asosiy shaxs sifatida harakat qiladi. Prezidentning huquqiy maqomi, shuningdek, hukumatning boshqa organlari bilan o'zaro munosabatlar va nazorat mexanizmlari orqali mamlakatdagi demokratik jarayonlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi davlat barqarorligi va rivojlanishining ta'minlanishida hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://www.streetlaw.uz/file/constitution/O'z%20Res%20Prez.=%20kons-viy%20maqomi%20SH.pdf>.
2. https://www.hasanboy.uz/wp-content/uploads/2018/07/11_sinf_ Ozbekiston-tarixi-darslik.pdf.
3. O'zbekiston prezidentligi saylovleri tarixi [https://kun.uz/news/2021/10/25/raqamlar-va-rekordlar-ozbekiston-prezidentligi-saylovleri-tarixi](https://kun.uz/news/2021/10/25/raqamlar-va-rekordlar-ozbekiston- prezidentligi-saylovleri tarixi?q=%2Fnews%2F2021%2F10%2F25%2Fraqamlar-va-rekordlar- ozbekiston-prezidentligi-saylovleri-tarixi)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi https://president.uz/oz/pages/view/about_staff?menu_id=15.
5. file:///C:/Users/STUDENT/Downloads/o-zbekiston-respublikasida-siyosiy- partiyalarning-siyosiy- va-ijtimoiy-ahamiyati.pdf SCIENTIFIC PROGRESS.
6. Prezidentning bugungi kundagi roli. Ferrel Heady <https://www.jstor.org/stable/973224>.
7. Prezidentning roli va mas'uliyati <https://www.learningforjustice.org/the- roles-and-responsibilities-of-the-president>.
8. Ijroiya filiali <https://bidenwhitehouse.archives.gov/about-the-white-house/our-government/the-executive-branch/>.
9. <http://www.president.uz>.
10. <https://scholar.google.com>.